

**«Galaxy AI Raffle»
PROMO-AKSIYASIDA ISHTIROK ETISH QOIDALARI**

Ushbu «**Galaxy AI Raffle**» («**Aksiya**») reklama aksiyasida ishtirok etish qoidalari “SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN” MChJ (САМСҮНГ ЭЛЭКТРОНИКС УЗБЕКИСТАН) («**Tashkilotchi**») va Aksiya ishtirokchisi o‘rtasidagi kelishuvdir. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriydir va Aksiya Ishtirokchilarining https://www.samsung.com/uz_ru/offer/galaxy-ai-promo («**Aksiya Sayti**») manzilidagi rasmiy internet-do‘kon veb-saytida joylashtirilgan ushbu Aksiya qoidalari bilan tanishganligini va so‘zsiz roziliginibildiradi;

1. Umumiy qoidalari

- 1.1. **Tashkilotchi:** Yunusobod tumani, Oloy Bozori pr-di, Amir Temur shoh ko‘chasi 64, “ORIENT BUSINESS CENTER”, 11-qavat, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi, 100000. Samsung Electronics Uzbekistan FC MChJ.
- 1.2. **Aksiyani o‘tkazish vaqt:** 2024 yil 11 noyabr soat 00:00 dan 2024 yil 1 dekabr soat 23:59 gacha (shu jumladan) Toshkent vaqt bilan;
- 1.1. **Aksiya natijalarini sarhisob qilish sanasi:** 2024 yil 04 dekabr soat 17:00-21:00
- 1.2. **Aksiyani o‘tkazish hududi:** Tashkilotchining rasmiy hamkorlarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi savdo nuqtalari.
- 1.3. **Aksianing rasmiy hamkorlari (“Rasmiy hamkor”):**
 - OOO “GOODZONE TRADING”
 - OOO “SIFAT BUSINESS SAVDO”
 - OOO “TEXNOMART”
 - OOO “MEDIAPARK”
 - OOO “TEXNOPORT”
 - OOO “Free Valley Trade”
 - OOO “RADIUS MOBILE”
 - OOO “NEW IMPORTANT TRADE SENTR”
 - OOO “11th ELECTRONICS”
 - OOO “DU AMIR GROUP”
 - OOO “BM OPERATION”
 - OOO “BUSINESS GROUP XD”
 - OOO “DXB DEVICE”
 - OOO “SMARTBLAX IT COMPANY”
- 1.3. **Sovg‘ani berish punkti:** Yunusobod tumani, Oloy Bozori pr-di, Amir Temur shoh ko‘chasi 64, “ORIENT BUSINESS CENTER”, 11-qavat, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi, 100000. Samsung Electronics Uzbekistan FC MChJ.
- 1.4. **Aksiya Sayti Aksiya haqida asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi.** Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlaridagi Aksiya haqidagi ma’lumotlar qisqartirilgan bo‘lib barcha to‘liq va batafsil ma’lumotlar ushbu Qoidalarda keltirilgan.

2. Aksiya ishtirokchisi

- 2.1. 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan chet el fuqarolari hamda shaxsan o‘z kuchi va imkoniyatlari bilan ushbu Qoidalarning barcha shartlarini bajargan, muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar aksiya ishtirokchisi bo‘lishi mumkin («**Ishtirokchi**»).

- 2.2. Tashkilotchining xodimlari, unga aloqador shaxslar, ularning oila a'zolari, shuningdek, Aksiyani tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etuvchi boshqa kompaniyalar xodimlari Aksiyada ishtirok eta olmaydilar.
- 2.3. Aksiyada ishtirok etish orqali, shuningdek, ro'yxatdan o'tish vaqtida (jumladan, **Aksiya Saytida**) va boshqa tarzda quyida ko'rsatilgan hajmda har qanday ma'lumotlarni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish orqali Ishtirokchi Aksiyani, uning shartlariga rivoja etilishini, reklama, marketing va axborot rassilkalarini monitoring qilish, shuningdek marketing maqsadlarida boshqa bevosita aloqalarni o'rnatish maqsadida Tashkilotchiga va u vakolat bergen uchinchi shaxslarga o'z shaxsiy ma'lumotlarini shu jumladan transchegaraviy tarzda toplash, saqlash, uzatish va qayta ishlashga o'z roziligini beradi: joylashgan shahar, ism sharifi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki chet el fuqarosining yashash ruxsatnomasi), telefon raqami, elektron pochta manzili, yashash manzili. Rozilik belgilangan qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan uzatilgan ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha turlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: qabul qilish, qayd etish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, uzatish (jumladan, amaldagi qonunchilikka muvofiq transchegaraviy uzatish), o'chirish, yo'q qilish kabi qayta ishlashning barcha turlariga nisbatan qo'llaniladi shu jumladan Tashkilotchining vakolatlari shaxslari / boshqa vakolatlari shaxslari / uchinchi shaxslarga. Rozilik bunday ma'lumotlar Tashkilotchiga topshirilgan paytdan boshlab va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu rozilik qaytarib olinmaguncha amal qiladi.
- 2.4. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga foto/video suratga olish, saqlash, foydalanish, o'z surati/ishtiroki bilan tegishli foto/video materiallarni Tashkilotchining veb-saytida joylashtirishga, shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlardagi Tashkilotchining rasmiy sahifalarida, shuningdek, boshqa maqsadlarda, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, buxgalteriya hisobi va hisobot berish uchun foydalanishga so'zsiz va beg'araz rozilik beradi.

3. Aksiyaning tavsifi

- 3.1. Ushbu Qoidalarga muvofiq, Ishtirokchi ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha shartlarni bajargan taqdirda, quyida keltirilgan sovg'alardan birini olish imkoniyatiga ega.

4. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 4.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagi harakatlarni bajarishi kerak:
 - Aksiya muddati davomida Ishtirokchi ushbu Qoidalarning 1.2-bandida yuqorida ko'rsatilgan Rasmiy hamkorlardan biridan SAMSUNG savdo belgisi ostida quyidagi mahsulotlardan ("Mahsulot") birini sotib olishi kerak:
 - Galaxy S24 / S24+ / S24 Ultra
 - Galaxy Fold6 / Flip6
 - Galaxy S24 FE
 - Galaxy A55 / A35
 - Galaxy Tab S9 / S9+ / S9 Ultra
 - Galaxy Tab S9 FE / FE+
 - Aksiya o'tkazilishi davomida Ishtirokchi mahsulotni faollashtirishi, Samsung account va Google account dan avtorizatsiyasidan o'tishi va Samsung Members ilovasida Ishtirokchi shaklini to'ldirishi kerak bo'ladi. Ishtirokchi Samsung Members ilovasida bo'sh maydonlarni quyidagilarni ko'rsatgan holda shaklini to'ldirishi kerak bo'ladi: Ism sharifi, telefon raqami, mahsulot sotib olingan sana
 - <https://www.instagram.com/samsunguzbekistan?igsh=ZHpwMXM5eXEzeDlx> striming xizmati platformalaridan birining kanalida onlayn translyatsiya paytda hozir bo'lish.

5. Sovg'alar

- 5.1. Aksiya sovg'asi SAMSUNG savdo belgisi ostidagi quyidagi mahsulotlarni o'z ichiga oladi ("Sovg'a"):
 - Samsung Galaxy Tab S9 256GB – 10 pcs.
- 5.2. Sovg'alarning umumiyligi soni **10 (o'n)** dona.
- 5.3. Sovg'aning rangi Tashkilotchining, Rasmiy hamkorning yoki Sovg'a topshirish punktidagi tovarlarning mavjudligiga bog'liq va Aksiya Saytidagi rasmdan farq qilishi mumkin. Barcha rasmlar ma'lumot uchun keltirilgan.

- 5.4. Aksiya doirasida olingen Sovga‘ga ushbu turdag'i mahsulotlar uchun standart kafolat beriladi.
- 5.5. Sovg‘aga unini sozlash (nastroyka) yoki ulash bo‘yicha hech qanday ish/xizmat kirmaydi.
- 5.6. Quyidagi hollarda Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish huquqini yo‘qotadi va Sovg‘a olishga da’vo qila olmaydi:
 - Aksiyaning har qanday shartlarini buzish;
 - firibgarlikka urinish yoki boshqa noqonuniy harakatlar faktlari aniqlanganda;
 - uchinchi shaxs sovg‘ani olishi uchun unga Mahsulot, qadoq va Mahsulot sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni topshirish;
 - ushbu Qoidalarni buzgan holda ma’lumot/hujjatlarni taqdim etishdan va/yoki fotosuratlar/video suratga olishdan bosh tortishda.
- 5.7. Tashkilotchi hech qanday holatda Sovg‘ani ekvivalent pulga almashtirmaydi va/yoki tegishli Sovg‘ani boshqa mahsulot bilan almashtirishni ta’minlamaydi.
- 5.8. Sovg‘ani olish munosabati bilan yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar Tashkilotchi tomonidan mustaqil ravishda va o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.
- 5.9. Agar biron-bir shaxs Sovg‘a qiymatini to‘lashni, soliq yoki boshqa to‘lovlarini to‘lashni talab qilsa, iltimos, bunday to‘lovlarini amalga oshirmang va darhol Tashkilotchiga murojaat qiling.
- 5.10. Aksiya muddati davomida u yoki bu sabablarga ko‘ra topshirilmay qolgan sovg‘alar talab qilinmagan hisoblanadi. Talab qilinmagan sovg‘alar saqlanmaydi va Tashkilotchi tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanaladi.

6. Aksiya g‘oliblarini aniqlash va sovg‘alar topshirish tartibi

- 6.1. Ushbu Qoidalarga muvofiq, Ishtirokchi, ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha shartlarni bajargan holda, Tashkilotchining rasmiy Hamkorlaridan Mahsulotlarni xarid qilishda Sovg‘alar o‘ynalishida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- 6.2. Aksiya Tashkilotchisi o‘yin natijalarini ishtirokchilar orasidan tasidifiy tarzda G’olibni (“G’olib”) tanlash orqali o‘tkazadi. G’olib Instagram samsungzbekistan ijtimoiy tarmog‘idagi jonli efirda aniqlanadi. Aksiya ishtirokchilar orasida va 2024-yil 4-dekabr soat 17:00-21:00 da ijtimoiy tarmoqlarda Jonli efir davomida Tashkilotchi “G’olibga” telefon orqali qo‘ng‘iroqni amalga oshiradi. Agarda “G’olib” uch marta telefon orqali qo‘ng‘iroqqa javob bermasa, uning “G’olib” sifatidagi unvoni avtomatik tarzda o‘z kuchini yo‘qotadi.
- 6.3. Sovg‘ani olish uchun G’olib quyidagilarni bajarishi kerak:
 - 6.3.1. ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan Sovg‘alarni topshirish punktiga shaxsan va o‘z mablag‘i hisobidan yetib kelish;
 - 6.3.2. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini yoki respublika norezidentlari uchun yashash uchun ruxsatnomani taqdim etish;
 - 6.3.3. sovg‘ani qabul qilish va topshirish dalolatnomasini to‘ldirish va imzolash;
 - 6.3.4. taqdim etish: aksiyada ishtirok etish uchun ma’lumotlar yuborilgan YouTube foydalanuvchi tarmog‘ida Google va Samsung akkauntlarining mavjudligi;
 - 6.3.5. Agar kerak bo‘lsa, topshirilgan sovg‘ani qolda ushlagan holda fotohisobot uchun rasmga tushishga rozilik berish.
- 6.4. Zarur bo‘lganda, Aksiya natijalari Tashkilotchi tomonidan Aksiya Saytida va/yoki Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlarida 2024 yil 31 dekabrdan kechiktirmay e’lon qilinadi;
- 6.5. Aksiya g‘olib Sovg‘ani faqat ushbu Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan Sovg‘ani topshirish punktidan olish imkoniyatiga ega;
- 6.6. Sovg‘alarni topshirish punktida Sovg‘alar aksiya g‘oliblariga faqat aksiyaning barcha shartlariga qat’iy rivoja qilish sharti bilan topshiriladi.

7. Aksiya ishtirokchisining huquq va majburiyatları

- 7.1. Aksiya ishtirokchisining huquqlari:
 - Ushbu Qoidalalar bilan tanishib chiqish;
 - Ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish;
 - Aksiyani o‘tkazish shartlari va muddatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Aksiya Saytidagi ommaviy resurslar va aloqa kanallari orqali olish;
 - Aksiya Saytida ushbu Qoidalarga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida ma’lumot olish;

- Ushbu o‘zgarishlarga rozi bo‘Imagan taqdirda, aksiyada ishtirok etishni rad etish orqali o‘zgarishlarni qabul qilishdan bosh tortish. Ushbu sanadan keyin Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining kiritilgan o‘zgartirishlarga roziligi hisoblanadi;
 - Aksiya Tashkilotchisi haqida ma’lumot olish;
 - Ushbu Qoidalarga muvofiq Sovg‘a berishni talab qilish;
- 7.2. Aksiya ishtirokchisining majburiyatları:
- Qoidalarga rioya qilish, shu jumladan aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq barcha harakatlarni ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
 - Aktsiyada ishtirok etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) Internet, telefon va boshqalar uchun xarajatlarni o‘z zimmasiga olish;
 - ushbu Qoidalarda va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarini o‘z zimmasiga olish.

8. Aksiya tashkilotchisining huquq va majburiyatları

8.1. Tashkilotchining huquqlari:

- Aksiya muddati davomida bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni Aksiya Saytida tegishli bildirishni joylashtib Ishtirokchini oldindan xabardor qilish orqali o‘zgartirish. Bildirish sanasi Aksiya Saytida tegishli ma’lumotlarning e’lon qilingan sanasi yoki shartlar o‘zgartirilganda ko‘rsatilgan qo‘srimcha sana hisoblanadi. Ushbu sanadan keyin Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining kiritilgan o‘zgartirishlarga roziligi hisoblanadi.
- Ishtirokchilaridan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda zarur ma’lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun boshqa hujjatlarni so‘rab olish;
- Tashkilotchi ushbu Aksiya qoidalarini va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi;
- Qoidalarning 4.1-bandida ko‘rsatilgan barcha shartlarni to‘g‘ri va to‘liq bajarmagan Aksiya ishtirokchisiga Sovg‘a berishni rad etish;
- Aksiya ishtirokchisi ushbu Qoidalarga rioya qilmaganligi aniqlansa, Aksiya ishtirokchisiga sovg‘a berishni rad etish.

8.2. Tashkilotchining majburiyatları:

- Qoidalarga rioya qilish, Aksiya bilan bog‘liq barcha harakatlarni Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;
- Aksiyaning Qoidalarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash;
- Aksiya qoidalarini Aksiya Saytida va tanlangan aloqa kanallarida joylashtirish orqali Aksiya Ishtirokchilarini uni amalga oshirish Qoidalari to‘g‘risida xabardor qilinishini ta’minlash;
- Qoidalarning barcha shartlarini to‘g‘ri bajargan barcha Aksiya ishtirokchilariga aksiya sovg‘alarini topshirish.

9. Boshqa shartlar

- 9.1. Aksiyaning barcha ishtirokchilari unda ishtirok etish orqali Aksiya qoidalariga rozilik bildiradilar va ularni bajarish va ularga rioya qilish majburiyatini oladilar. Ishtirokchi Sovg‘a olish huquqini yo‘qotadi agar u:
- ushbu Aksiya qoidalarini buzgan bo‘lsa;
 - sovg‘ani olish uchun firibgarlik va/yoki aldash harakatini sodir etgan bo‘lsa;
 - noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etgan bo‘lsa;
 - tashkilotchi 30 kun ichida u taqdim etgan aloqa ma’lumotlaridan foydalangan holda Ishtirokchi bilan bog‘lana olmasa.
- 9.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalarga so‘zsiz roziliginini bildiradi. Ishtirokchining Qoidalarni to‘liq va/yoki qisman bajarishdan bosh tortishi Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishni rad etishi deb tan olinadi.
- 9.3. Aksiyani amalga oshirish jarayonida Ishtirokchidan Ishtirokchini identifikatsiyalash uchun pasportni taqdim etish talab qilinishi mumkin;
- 9.4. Aksiya musobaqa, lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan qimor o‘yin emas;

9.5. Ishtirokchiga uning fikr-mulohazalarni olish maqsadida va Tashkilotchi/Hamkor xizmati sifatini nazorat qilish uchun Sifat bo‘limidan qo‘ng‘iroq qilishlari mumkin. Ishtirokchi o‘z fikrini bildirishdan bosh tortishga haqlidir.

Ushbu internet-sayt va uning mazmuni faqat ma’lumot olish uchun mo‘ljallangan va hech qanday holatda ommaviy oferta hisoblanmaydi.

Aksiya bilan bog‘liq barcha savollar bo‘yicha Tashkilotchining aloqa ma’lumotlariga murojaat qiling.

Tashkilotchining qo‘ng‘iroq markazining aloqa ma’lumotlari:
7799 - yagona qo‘llab-quvvatlash xizmati.